

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NUTQIY AKTLARNING O‘RGANILISHI

Qosimova Guljahon Mahmudovna

FarDU professori

Ne'matova Muhlisaxon Ilxomjon qizi

IIV 1-son Toshkent akademik litseyi katta o'qituvchisi

+998950963020

@mushiabbasova99@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda jahon tilshunosligida nutqiy aktlarning o'rganilishi bilan bir qatorda aynan o'zbek olimlarining ichki tilshunoslikning aynan nutqiy aktlar nazariyasiga qo'shgan hissalari haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Nutqiy aktlar, lokutiv akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, lingvosinergetika.

Til – bu insonlarning ijtimoiy aloqa va o'zaro ta'sir vositasi bo'lib, unda nafaqat axborot uzatiladi, balki ijtimoiy rollar, odob-axloq qoidalari, hurmat va munosabat shakllari ham ifodalanadi. Nutqiy akt nazariyasi asoschisi J.Serl ta'kidlaganidek, har bir nutqiy akt ma'lum kommunikativ maqsadga ega bo'lib, uning pragmatik kuchi va maqsadi muloqot jarayonidagi kontekst va ishtirokchilar orasidagi munosabatlarga bevosita bog'liq.

Insonlar orasidagi muloqot jarayoni faqat axborot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va boshqaruvchi qurol sifatida ham xizmat qiladi. Har bir til jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy va madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy me'yor va rasm-rusumlarni aks ettiradi. Xususan, buyruq nutqiy aktlari ijtimoiy munosabatlarda suhbatdoshga qandaydir harakatni amalga oshirish yoki taqiqlashni bildiruvchi lingvopragmatik birliklar sifatida alohida ahamiyatga ega.

Adabiy matnlar nafaqat estetik baho uchun, balki tilshunoslikda pragmatik jihatdan ham tahlil qilishga boy manba hisoblanadi. Ayniqsa, qadimiy nasihatnomalar – muallifning ma'lum bir kommunikativ maqsad bilan yozgan nutqlari sifatida ko'rib chiqiladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, XI asr fors-tojik adabiyotining durdonalaridan biri bo'lgan Amir Kaykovusning “Qobusnoma” asari – nutqiy akt nazariyasi doirasida o'rganish uchun nihoyatda boy materialdir. Asarda muallif o'z o'g'li Gilongushga murojaat qilib, hayotiy tajriba, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlar haqida illokutsional maqsadga ega bo'lgan nutqlarni ilgari suradi. Bu nutqiy aktlar orqali nasihat, buyruq, maslahat, ogohlantirish kabi turli illokutsion aktlar aniq namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, nutq – inson tafakkurining tashqi ifodasi bo'lib, u orqali shaxs o'z niyatini, istagini va fikrini boshqalarga etkazadi. Ayniqsa, didaktik asarlar tilning kommunikativ va illokutsional kuchini aniq ko'rsatib bera oladi. Shu jihatdan, fors-tojik adabiyotining yana bir yirik vakillaridan biri bo'lgan Sa'diy Sheroziyning “Mahbub ul-qulub” (“Ko'ngillarning sevgani”) asari nutqiy akt nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish uchun g'oyat qimmatli manbadir. Bu asarda muallif turli ijtimoiy qatlamlar vakillari haqida fikr bildirar ekan, har bir holatda o'z kommunikativ maqsadini aniq ifodalaydi: kimga qanday munosabatda bo'lish kerak, qanday so'z aytish lozim, insoniy fazilatlar qanday bo'lishi kerakligi haqida so'z yuritadi. Asarda ko'plab direktiv, ekspressiv va representativ nutqiy aktlar mavjud bo'lib, ular orqali muallifning ijtimoiy axloq va adolat haqidagi qarashlari namoyon bo'ladi. Nutqiy aktlar tilshunoslikda o'rganilayotgan bir paytda, bu soha eng yosh sohaga aylanib qoldi. Yaqin yillargacha nutqda grammatika, gap turlari, so'zlar, til birliklari asosiy qism deb qaraldi, so'zlovchi, tinglovchi, umuman nutqiy jarayon ishtirokchilari esa maydondan chiqib ketdi.

Hozirgi kunda dolzarb deb qaralayotgan diskursga 1960-1980-yillarda turli sohalarda ilmiy yondashuvlar shakllandi. Chunki falsafa, sotsiologiya, psixologiya, tilshunoslik birlashib, tilning jamiyatdagi rolini o'rganishga jiddiy kirishildi. Nutq orqali hokimiyat, ideologiya, gender, millat, siyosat kabi

masalalarni echish mumkinligining ongliz ravishda anglash, OAV, reklama, siyosat, ta'limda diskurs vositalari orqali ongga ta'sir qilish tahlil qilina boshladi. Ilm berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, o'git berish kabi nutqiy harakatlar illokutsional akt hisoblanadi. Masalan: "Farzandim, ilm ol, chunki ilm bilan odam ulug' bo'lur" – bu jumla buyurish yoki nasihat qilish maqsadida aytilgan. Tilshunoslik har doim o'z oldiga til vositalarini obyekt qilib o'rganishni maqsad qildi. Buni "taomning asosi faqat mahsulotlarda" deb qarashdek tushunish mumkin. Taomni faqat uning tarkibidagi mahsulotlar orqali baholash – bu uning butun mohiyatini anglamaslikdir. Axir taomning qiymati nafaqat nima solingani, balki uning ta'mi, taqdimoti, kimga, kim tomonidan, qanday kayfiyatda tortilgani bilan belgilanadi. Aynan shunday, nutqni ham faqat so'zlar bilan o'lchab bo'lmaydi – u qanday intonatsiyada aytilgani, qanday kontekstda, kimga va nima niyatda aytilgani bilan o'z haqiqiy mazmunini topadi. Taom va nutq – ikkalasi ham o'zida nafaqat modda, balki ma'no, did va ruhni mujassam etgan san'atdir. Diskurs lingvistikasi aynan zamonaviy tilshunoslik yo'nalishida aynan bu sohani o'rganishni boshlab berdi.

Pragmalingvistika o'zbek zamonaviy tilshunosligida yangi rivojlanib borayotgan soha bo'lib, A.Nurmonov, Sh.Safarov, M.Hakimov, A.Hojiyev, O.Ahmanova, M.Gaziyeva kabi ko'plab tilshunos olimlar tadqiqotlarida uning o'ziga xos xususiyatlari yoritilib, ilmiy-nazariy asoslari yaratildi¹.

A.Nurmonov tadqiqotlari davomida F.de Sossyur, V.Gumbolt, A.Xolodovichning nazariyalariga asoslanib tilshunoslikning o'rganish obyekti nutqiy faoliyat bo'lishi lozim degan xolosaga kelgan. Ichki hamda tashqi lingvistikani farqlagan, tashqi lingvistika tilning yashashi uchun zarur bo'ladigan tashqi shart-sharoitlarni o'rganishini, ichki lingvistika esa o'zi o'rganayotgan obyektning ichki tuzilishi, mazmuni hamda xususiyatini o'rganishini, nutqiy aktlar esa ushbu yo'nalishning obyekti ekanini keltirib o'tgan.

¹ Nasridinov M. Buyruq aktining lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. d-ri (PhD)... diss. – Farg'ona, 2024. – B. 16.

J.Ostin ma'ruzalaridan to'plangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib ko'plab olimlar nutqiy akt nazariyasi doirasida izlanishlar olib bordilar va bu soha rivojiga o'z ilmiy qarashlari, fikrlarini bayon etib o'tdilar. O'zbek tilshunosi Sh.Safarov o'z tadqiqotlarida rus tilshunos olimi O.Pochepskovning nutqiy akt nazariyasiga bergan fikrlarini quyidagicha bayon etadi: "Nutqiy harakat va bu harakat vositasida voqelanadigan maqsad so'zlovchi ko'zlagan asosiy maqsadga erishishning faqatgina bir bosqichidir. Shuning uchun ham maqsad ikki qismga, ya'ni boshlang'ich intensiya va natijaviy intensiyaga ajratishni taklif qiladi"². Olim bu qarashlarida nutqiy akt voqelanishida intensional tahlil nuqtayi nazardan maqsadni aniqlash va turlarga ajratishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilaydi³.

A.Nurmonov til va nutqni murakkab, ochiq va o'z-o'zini boshqaruvchi tizim sifatida tasvirlaydi. U sinergetika nazariyasini nutq jarayonini va undagi o'zgarishlarni izohlashda muhim vosita deb hisoblaydi. Sinergetika tilshunoslikda yangi soha hisoblanib, bu yo'nalishni o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib A.Nurmonov chuqur tadqiq etgan. Til tizimi va nutq jarayonlarini sinergetika nazariyasi asosida tahlil qiluvchi tilshunoslik yo'nalishidir. Bu yondashuv tilni murakkab, ochiq va o'z-o'zini tashkil qiluvchi dinamik tizim sifatida ko'radi. Til hodisalari oddiy strukturaviy birliklar yig'indisidan iborat emas, balki doimo harakatda bo'lgan, tashqi va ichki omillar ta'sirida shakllanib, rivojlanib boruvchi tizimdir. Lingvosinergetika zahirida yotgan sinergetika – dastlab tabiiy fanlarda shakllangan bo'lib, murakkab tizimlarning muvozanat va beqarorlik o'rtasidagi o'zgaruvchan holatlarini, ularning ichki qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yo'nalishdir. Ushbu nazariya tilshunoslikka tatbiq qilinganida, til tizimi ham doimiy rivojlanish, o'zgarish va moslashuv jarayonida bo'lgan tirik tizim sifatida talqin qilinadi. Til va nutq hodisalarini kontekstdan ajralmagan holda, ya'ni real nutqiy vaziyatda o'rganadi. Til tizimini ochiq va dinamik tizim sifatida qaraydi, ya'ni til tashqi (ijtimoiy, psixologik, madaniy) omillar bilan uzviy bog'liq holda

² Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Тошкент, 2008. – Б. 200.

³ Nasridinov M. Buyruq aktining lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. d-ri (PhD)... diss. – Farg'ona, 2024. – B. 22.

faoliyat ko'rsatadi. Nutqning yuzaga kelishida subyektiv omillar (shaxsiy tajriba, psixologik holat, maqsad va niyat) muhim rol o'ynashini e'tiborga oladi. Tilda yuzaga keladigan beqarorlik, uzilish, yangilanish, muvozanatga intilish kabi hodisalar asosida tahlil olib boradi. A.Nurmonov va A.Rahimov hammuallifligida nashrdan chiqarilgan "Lingvosinergetikaga kirish" nomli risolada ushbu yo'nalishning metodologik asoslarini, nazariy manbalarini, asosiy tadqiqot obyektlarini va istiqbollarini yoritib bergan. Shu nuqtayi nazardan, lingvosinergetika zamonaviy tilshunoslikda kontekstual, funksional va tizimli yondashuvlarni uyg'unlashtiruvchi innovatsion yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikda tadqiqotlarning deyarli barchasi tajriba-eksperimentga asoslanmoqda. Chunki zamonaviy tilshunoslik real hayotdagi nutqiy jarayonlarni bevosita o'rganishni, til hodisalarini ularning tabiiy muhitida tahlil qilishni talab etmoqda. Tilshunoslikni ulkan bir okeanga qiyoslasak, ko'plab tadqiqotlarda bu okean suvidan kichik bir namunani – ya'ni til hodisasining izolyatsiyalangan ko'rinishini – probirkaga solib o'rganishga o'xshash metodlar qo'llaniladi. Biroq, probirkadagi suv endi okean suvi emas, balki sun'iy sharoitdagi modda sifatida qoraladi. Xuddi shuningdek, nutq hodisalarini ham sun'iy yoki kontekstdan ajralgan misollar asosida o'rganish, ularning haqiqiy mohiyatini to'liq anglash imkonini bermaydi. Tilshunoslikda tabiiy nutq jarayonlarini chuqur tahlil etish uchun ularni bevosita kechayotgan muhitda, real kommunikativ vaziyatda kuzatish zarur. Nutqning kontekstual omillari, ya'ni nutqdan oldingi va keyingi vaziyatlar, ishtirokchilarning psixologik holati, ijtimoiy va madaniy fon – mazkur jarayonning ajralmas tarkibiy qismlari sanaladi. Ushbu omillar e'tibordan chetda qolsa, tadqiqotning haqqoniyligi va to'liqligiga putur yetadi. Shunday ekan, bugungi kunda tilshunoslik empirik va kontekstga yo'naltirilgan yondashuvlarni talab qilmoqda. Til hodisalarini o'z muhitida, ya'ni "okean ichida" o'rganishgina tilning haqiqiy tabiatini ochib bera oladi.

“Nutq jarayoni – bu murakkab va doimiy harakatda bo‘ladigan ochiq tizim bo‘lib, unda sinergetik beqarorlik, bifurkatsiya va yangi holatlar yuzaga kelishi tabiiy jarayon hisoblanadi”⁴. U nutq jarayonida tartib va beqarorlik bir vaqtda mavjud bo‘lishi, yangiliklar va til birliklarining noan’anaviy shakllari yuzaga kelishi, gapirish jarayonida inson tafakkuri bifurkatsiya nuqtalariga kelib, qaysi ma’no yoki iborani tanlash holatiga tushishi haqida yozadi. Bu esa sinergetik tizimga xos bo‘lgan beqarorlik, tashqi va ichki omillar ta’siri, o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarini anglatadi. “Nutq – bu har doim dinamika, u o‘z ichida yangi variantlarni ishlab chiqib, o‘zi uchun maqbul variantni tanlab, uni voqelikka chiqarish qobiliyatiga ega”⁵. Nutqda inson gap boshlashdan avval bir necha variantlarni ichki ongida ko‘rib chiqadi. Har bir variant bifurkatsiya nuqtasini hosil qiladi.

Nutq jarayonida so‘zlovchi har safar ma’no yoki iborani tanlash holatiga tushadi. Masalan: “Men kitob o‘qiyapman” desa ham bo‘ladi, “Men dars qilyapman” desa ham bo‘ladi. Mana shu ikkita (yoki undan ko‘p) variant ichidan birini tanlash zarur bo‘ladigan lahza – bu bifurkatsiya nuqtasi hisoblanadi.

Nutq jarayonining sinergetik yondashuvi, albatta, ilg‘or fikr bo‘lsa-da, faqat subyektiv tafakkur bilan cheklanishi mumkin. Kommunikatsiya jarayonida madaniyat, ijtimoiy qoidalarga asoslangan omillarni hisobga olish talab qilinadi. Masalan, biror millatdagi nutq jarayoni o‘ziga xos ijtimoiy-qoidaviy tizimga bog‘liq, bu tizim esa sinergetik nuqtada har doim beqaror bo‘la olmaydi. A.Nurmonov nutq jarayonidagi bifurkatsiya nuqtalarini ta’riflashda, so‘zlovchining tanlov jarayonini sinergetik tizim sifatida keltiradi. Bifurkatsiya nuqtalari faqat shaxsiy tanlovlarga asoslanmasligi kerak. Nutq jarayonidagi

⁴ Nurmonov A. Til tizimi va nutq jarayonida sinergetik jarayonlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2012-yil, 2-son.

⁵ Nurmonov A. Nutq va uning sinergetik tabiati // Filologiya masalalari. – 2015-yil, 4-son.

bifurkatsiya ham ijtimoiy va madaniy kontekstga bog'liq bo'lishi mumkin. Misol uchun, ma'lum bir jamiyatda ma'lum iboralar yoki ma'nolar qo'llanilmasligi mumkin, shuning uchun nutqning ijtimoiy qarorlar va madaniy belgilarga qanday ta'sir ko'rsatishini kengroq o'rganish zarur. Sinergetika faqat lingvistik tizimga emas, balki ijtimoiy, madaniy, siyosiy va psixologik omillarga ham bog'liq. Agar sinergetik tahlil faqat tilning ichki tizimiga qaratilsa, unda bu yondashuv lingvistik izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun sinergetika yondashuvida tilshunoslikdan tashqari, sotsial psixologiya va madaniyatshunoslikka oid qarashlarni ham hisobga olish zarur.

N.Mahmudov nutqiy aktlarni til birliklari orqali ifodalanishini tadqiqqa tortgan, kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan harakatlar sifatida ko'rgan hamda tadqiqoti davomida nutqiy aktlarni til ishtirokchilarining o'zaro aloqalari sifatida tushuntirgan. Nutqiy aktlarning asosiy xususiyatlaridan biri bu, ularning kommunikativ vazifani bajarishidir. Nutqiy aktlar til ishtirokchilari o'rtasida ma'lumot almashish, fikr almashish, ijtimoiy aloqalar o'rnatish va ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

N.Mahmudov nutqiy aktlarni til birliklarining o'zaro bog'lanishi sifatida ko'rib chiqqan. U nutqiy aktning o'ziga xos strukturaga ega bo'lgan kommunikativ jarayon sifatida tahlil qilgan. Nutqiy aktlar bir nechta bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqichda til ishtirokchilarining niyatlari va maqsadlari ko'zda tutilgan. Nutqiy aktlarning birinchi bosqichi – bu nutqiy niyat. Nutq ishtirokchisi o'zining maqsadini belgilab, bu maqsadni amalga oshirish uchun so'zlar tanlaydi. Ikkinchi bosqich – bu so'zlarning o'zaro bog'lanishi va ular orqali ma'lum bir ma'no shakllanishi. Uchinchi bosqich – bu reaksiyalar va javoblar, ya'ni nutq ishtirokchilari bir-biriga javob berish orqali kommunikativ jarayonni davom ettiradilar.

N.Mahmudov tilning ijtimoiy funksiyalarini va madaniy ahamiyatini ta'kidlab, nutqiy aktlarning maqsadi faqat til ishtirokchilari o'rtasida ma'lumot

almashishdan iborat emasligini, balki ular jamiyatda ijtimoiy aloqalarni o'rnatishini va jarayonda o'zgarishini aytib o'tgan.

N.Mahmudov nutqiy aktlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy normativlar va madaniy qadriyatlar qanday shakllanayotganini ko'rsatadi. Nutq jarayonida ishtirokchilar faqat mantiqiy ma'lumotlar almashmaydi, balki ular o'zlarining ijtimoiy rollarini ham ifodalaydi. "Nutqiy aktlar nafaqat til birliklari, balki jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy aloqalarni ham aks ettiradi. Har bir so'z, har bir gap o'zining madaniy maqsadlariga ega bo'ladi⁶". Nutqiy aktlar til ishtirokchilari o'rtasidagi fikr almashish, his-tuyg'ularni ifodalash va maqsadlarni amalga oshirish vositasi sifatida ishlaydi. N.Mahmudov nutqiy aktlarni tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lgan kommunikativ tizim sifatida talqin qilgan. U nutqiy aktlarni nafaqat so'z va iboralar shaklida, balki nutq ishtirokchilari o'rtasidagi psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holatda ham ko'rib chiqadi. Nutqiy aktlar, shuningdek, til ishtirokchilarining ixtiyoriy va bevosita niyatlarini aks ettiradi. "Nutqiy aktlar faqat grammatika va sintaksisning hosilalari emas, balki ularda ishtirok etgan odamlarning niyatlari, ehtiyojlari va maqsadlari mavjud⁷".

M.Hakimovning fikriga ko'ra, nutqiy aktlarga pragmatika nazariyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Nutqiy aktlar muloqotda maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan va pragmatik nuqtayi nazardan ularning tahlili muhimdir. M.Hakimov pragmatik yondashuvni qo'llash orqali, nutqiy aktlarni tilshunoslikda qanday samarali tahlil qilishni ko'rsatadi. Misol: *Iltimos, men bilan gaplashing!* – Bu yerda *iltimos* so'zi pragmatik jihatdan buyruqni yumshatadi va iltimos sifatida ifodalanadi⁸. Olim nutqiy aktlarning turli shakllarini va ularning ijtimoiy kontekstdagi vazifalarini ko'rsatadi. Nutqiy aktlarning har biri o'ziga xos ijtimoiy maqsadga xizmat qilishini ta'kidlaydi, masalan, buyurish, so'rash,

⁶ Mahmudov N. Nutqiy aktlar va tilshunoslik: ijtimoiy va madaniy kontekst. – Toshkent: Sharq, 2007.

⁷ Mahmudov N. Pragmatik tilshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.

⁸ Hakimov M. Nutqiy aktlar va pragmatika. – Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2004.

maslahat berish va hokazo. Bu aktlar o'zaro kommunikatsiyada aniq vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi. Misol: *Kechirasiz, shu joyni bo'shatib bera olasizmi?* – Bu yerda nutqiy akt so'rash shaklida amalga oshiriladi va boshqa kishidan muayyan harakatni bajarishini so'rashni maqsad qiladi⁹. M.Hakimov nutqiy aktlarni o'rganishda madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Nutqiy aktlarning samarali bo'lishi uchun ular madaniy normalar va an'analarga mos kelishi kerak. Masalan, o'zbek madaniyatida katta yoshdagi kishiga “Salom, qandaysiz?” degan gapni aytish odatiy emas, ammo bunday jumlar boshqa madaniyatlarda o'ziga xos bo'lishi mumkin.

M.Hakimov nutqiy aktlarning muloqotdagi ijtimoiy va kommunikativ rolini o'rgangan. U, nutqiy aktlar ijtimoiy aloqalar va muloqotning samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan asosiy vosita sifatida qaralishini ta'kidlaydi. Har bir nutqiy aktning o'ziga xos ijtimoiy vazifasi bor. Masalan, *Iltilmos, bu yerga o'ting* – bu buyruq shaklida bo'lsa-da, undagi iltimos so'zi amaliy maqsadga erishish uchun ijtimoiy aniqlikni yaratadi. Nutqiy aktlar ijtimoiy o'zgarishlar, til va madaniyat o'rtasida qanday o'zgarishlar yuz berishini ko'rsatib beradi. Bu nuqtada, nutqiy aktlar kommunikativ muvaffaqiyatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Misol: Sizni ko'rganimdan xursandman! – bu nutqiy akt shaxsiy munosabatni ifodalashda, yaxshi niyat bilan aytilgan bo'lib, ijtimoiy muhitda aloqani mustahkamlaydi.

S.Mo'minov o'zining tadqiqot faoliyatida aynan muloqot va nutqning psixolingvistik, hududiy hamda jins jihatdan xoslanishini ochib bergan. S.Mo'minovning nutqning daromad bosqichi haqidagi g'oyasini nutqiy aktlarning aynan pragmatik jihatdan ochilishiga boshlang'ich nuqta bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. U nutqning bu bosqichida nutq ishtirokchilarining yashash sharoiti, jinsi, individual xususiyatlarini jamlagan holda urg'u beradi. “... aksariyat o'zbek ayollari ko'nglining ochiqligi, so'zga chechanligi, dilkash va dilbarligi bilan

⁹ Hakimov M. Nutqiy aktlar va ularning ijtimoiy funksiyalari. – Tashkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2009.

boshqa xalq ayollaridan ajralib turadilar... “elagingiz bormi yoki “elagingizni berib turing” deb boshlamay, muddaoga o‘tishdan avval uzoq daromad qiladi, ya’ni hol-ahvol so‘raydi, o‘zining, oila a‘zolarining ishlari bilan qiziqadi. ... Qo‘shnisining o‘z sha’niga aytilgan iliq gaplardan iyib ketgan mezbon ayol esa bunday daromad nutqidan keyin yo‘qni yo‘nidirishni, hatto o‘zi ishlatib turgan eng zarur ro‘zg‘or buyumini in’om etib yuborishiga ham rozi bo‘ladi”¹⁰.

S.Mo‘minov muloqotdagi ayol va erkak nutqini farqlar ekan ayollarning nutqi oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi, to‘y-xashamlar haqida bo‘lishini va bu jarayon maqollar, iboralar, qochirimlarga boy bo‘lishini, erkaklarning esa nutqlari ish yuzasidan, jiddiy masalalarga qaratilgan bo‘lishini ta’kidlaydi. “Og‘zaki va yozma nutq vaziyat, holat bilan bog‘liq holda adresatga turlicha ta’sir etadi. Jumladan, o‘qituvchi darsda, notiq ma’ruza paytida, guvoh sudda, sevishtganlar uchrashuv paytida o‘z fikrini o‘qib bersa, bu matn qanchalik mazmundor bo‘lmasin ta’sirsiz bo‘ladi. Ammo notiqning o‘sha mazmunli ma’ruzasi matbuotda e’lon qilinsa, uslub nuqtayi nazaridan u ma’ruza paytida o‘qib berilganidan ko‘ra adresatga kuchliroq ta’sir etishi mumkin”¹¹.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilshunosligida nutqiy aktlar nazariyasining ilmiy asoslari shakllangan. Unda A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Hakimov hamda S.Mo‘minovlarning ishlari shu yo‘nalishni boshlab bergan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda qator tadqiqotlar olib borilgan hamda davom ettirilmoqda. Ushbu nazariyani qiyosiy o‘rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Nutqiy aktlar nazariyasi tilshunoslikning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Unda til birliklari nafaqat ma’no ifodasiga, balki muloqot birligiga aylanadi, ya’ni semantika, grammatika hamda lug‘at tarkibida o‘rganilgan jihatlar ijtimoiylik nuqtayi nazaridan qayta baholanadi.

¹⁰ Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. – Farg‘ona: Classic, 2021. – B. 184.

¹¹ Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. – Farg‘ona: Classic, 2021. – B. 16.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962
2. Hakimov M. Nutqiy aktlar va ularning ijtimoiy funksiyalari. – Tashkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2009
3. Hakimov M. Nutqiy aktlar va pragmatika. – Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2004
4. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. – Farg'ona: Classic, 2021
5. Mahmudov N. Nutqiy aktlar va tilshunoslik: ijtimoiy va madaniy kontekst. – Toshkent: Sharq, 2007
6. Mahmudov N. Pragmatik tilshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2010
7. Nurmonov A. Til tizimi va nutq jarayonida sinergetik jarayonlar // O'zbek tili va adabiyoti. – 2012-yil, 2-son
8. Nurmonov A. Nutq va uning sinergetik tabiati // Filologiya masalalari. – 2015-yil, 4-son
9. Searle J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969